

Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-avgust)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida respublika korxonalarini tomonidan 8702,6 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 101,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 86,3 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning -1,9 % ga a hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning -69,9% ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 56,8 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 81,2 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 77,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ohak tosh qazib olish - 41,4 % ga oshgan bo'lsa, tabiiy qum-17,9% ga, gaz kondensati - 8,3 % ga, chaqiq tosh- 14,4 % ga hamda tabiiy gaz qazib olish-8,6 % ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Ohak tosh , ming t.	120,5	170,9	50,4
Tabiiy qum, ming t.	457,5	375,6	-81,9
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	1993,7	1822,8	-170,9
Gaz kondensati, ming t.	80,7	74,0	-6,7
Chaqiq tosh, ming t.	246,5	210,9	-35,6
Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid, ming t.	96,2	55,2	-41,0




Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7512,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,3 % ini tashkil etdi.



**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2019- yil yanvar-avgust oylarida - 1,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 63,0 % (68,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,4 % (4,8 %) va quyi texnologiyalisi – 30,8 % (25,3 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 54,4 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 100,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,9 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,2 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,8 %)ni, boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,8 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,6 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 192,0 ming tonna portlandsement (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 93,6 % ga o'sgan), 4,6 ming tonna tozalangan gurich (58,5 %) 62,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (21,5 %) hamda 7,8 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (0,5 %) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	24,9	29,8	4,9
Aroq, ming liter 100 % li spirit	2585,8	1898,3	-687,5
Paxtadan yigirilgan ip, t.	4929,6	6557,0	1627,4
Polietulen, ming t.	245,5	237,2	-8,3
Polipropilen, ming t.	64,5	65,8	1,3



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1064,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,2 %)ini tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 69,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	2301,2	2780,1	478,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	30,1	20,7	-9,4
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	44661,8	48841,9	4180,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (0,6 %) ini tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	3227,4	3995,5	768,1
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	8385,5	7454,2	-931,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	24360,2	27168,2	2808,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 23,8 % ga suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar -11,5 % ga oshganligi hamda xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar – 11,1 % ga kamayganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1578,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 3,2 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 18,1 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga solishtirganda yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 61,8 % dan 62,6 % gacha oshganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,8 % (2019- yil yanvar-avgust oylarida 6,4 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,3 % ni, shuningdek, Xo'jayli tumani 8,8 % ni, To'rtko'l tumani 8,1% ni, Ellikqal'a tumani 7,8 % ni, Beruniy 7,4 % ni , Qo'ng'irot 6,9 % ni hamda Taxiatosh tumanlari 5,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (103,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bo'zatov (202,8 %), Shumanay (126,2 %), Qonliko'l (124,2 %), Mo'ynoq (116,8 %), Taxtako'pir (114,1 %), Taxiatosh (111,7 %) hamda Chimboy (109,9 %) tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1578,4	100	103,2
Amudaryo	80,0	5,1	100,0
Beruniy	117,0	7,4	100,0
Bo`zatov	13,0	0,8	202,8
Qonliko'l	100,8	6,4	124,2
Qorao'zak	30,4	1,9	100,2
Kegeyli	37,5	2,4	100,1
Qo'ng'irot	108,4	6,9	100,2
Mo'ynoq	40,4	2,6	116,8
Nukus	36,1	2,3	113,2
Taxiatosh	92,3	5,8	111,7
Taxtako'pir	78,7	5,0	114,1
To'rtko'l	128,0	8,1	100,1
Xo'jayli	139,0	8,8	100,0
Chimboy	89,0	5,6	109,9
Shumanay	44,8	2,8	126,2
Ellikqal'a	122,6	7,8	104,8
Nukus sh.	320,4	20,3	91,5

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,6 %, shuningdek, To'rtko'l tumani 9,3 % ni, Qonliko'l tumani 7,7 % ni va Xo'jayli tumani 7,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Bo`zatov (263,7 %), Taxiatosh (159,0 %), Qonliko'l (141,6 %) Mo'ynoq (140,8 %), Ellikqal'a (128,4 %) Taxtako'pir (128,3 %), va Shumanay (117,6 %) tumanlarida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-avgust oylariga
Qoraqalpog'iston Respublikasi	987,3	100	104,4
Amudaryo	52,8	5,4	98,1
Beruniy	51,6	5,2	80,5
Bo`zatov	10,5	1,1	263,7
Qonliko'l	75,8	7,7	141,6
Qorao'zak	16,0	1,6	101,4
Kegeyli	21,0	2,1	88,5
Qo'ng'irot	53,4	5,4	97,1
Mo'ynoq	31,3	3,2	140,8
Nukus	22,7	2,3	105,6
Taxiatosh	69,3	7,0	159,0
Taxtako'pir	68,1	6,9	128,3
To'rtko'l	91,4	9,3	109,4
Xo'jayli	69,2	7,0	83,0
Chimboy	63,5	6,4	111,1
Shumanay	19,2	1,9	117,6
Ellikqal'a	68,5	6,9	128,4
Nukus sh.	203,0	20,6	84,1

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 19,9 %, shuningdek, Xo'jayli tumani 11,8 % ni, Beruniy tumani 11,1 % ni, Ellikqal'a tumani 9,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida respublika o'sish sur'ati (101,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Shumanay tumanida (133,5 %), Nukus tumanida (128,6 %), Xo'jayli tumanida (125,6 %) hamda Beruniy tumanida (123,7 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	591,1	100	101,3
Amudaryo	27,2	4,6	104,0
Beruniy	65,4	11,1	123,7
Bo`zatov	2,5	0,4	102,9
Qonliko'l	25,0	4,2	90,5
Qorao'zak	14,4	2,4	98,8
Kegeyli	16,5	2,8	119,9
Qo'ng'irot	55,0	9,3	103,4
Mo'ynoq	9,1	1,5	73,8
Nukus	13,4	2,3	128,6
Taxiatosh	23,0	3,9	58,8
Taxtako'pir	10,6	1,8	66,7
To'rtko'l	36,6	6,2	82,4
Xo'jayli	69,8	11,8	125,6
Chimboy	25,5	4,3	107,2
Shumanay	25,6	4,3	133,5
Ellikqal'a	54,1	9,2	84,9
Nukus sh.	117,4	19,9	108,1

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4845,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 55,7 % ni tashkil etdi.



**Qoraqalpo'giston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar-avgust mldr. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qoraqalpo'giston Respublikasi	8702,6	101,3
Amudaryo	244,3	101,1
Beruniy	165,8	95,0
Bo`zatov	63,2	102,2
Qonliko'l	201,2	109,3
Qorao'zak	160,4	108,8
Kegeyli	201,0	113,6
Qo'ng'irot	414,7	105,4
Mo'ynoq	79,6	117,5
Nukus	180,8	105,5
Taxiatosh	1003,8	123,8
Taxtako'pir	125,0	110,2
To'rtko'l	220,5	105,9
Xo'jayli	315,2	106,9
Chimboy	120,1	105,3
Shumanay	99,7	124,6
Ellikqal'a	190,0	102,2
Nukus sh.	4917,3	89,0

Qoraqalpo'giston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 56,5 %), Taxiatosh (11,5 %) hamda Qo'ng'iroq (4,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Bo'zatov (0,7 %), Mo'ynoq (0,9 %) hamda Shumanay (1,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Shumanay (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 124,6 %), Taxiatosh (123,8 %), Mo'ynoq (117,5 %), Kegeyli (113,6 %) hamda Taxako'pir (110,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi
(2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da)**




**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati
(2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da)**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Bo'zatov (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 202,8 %), Shumanay (126,2 %), Qonliko'l (124,2 %), Mo'ynoq (116,8 %), Taxtako'pir (114,1 %), Nukus(113,2 %), Taxiatosh (111,7 %), Chimboy (109,9 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (15328,1 ming so'm), Taxiatosh (13564,6 ming so'm) tumanida o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasi darajasi ko'rsatkichidan (4570,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 828,9 ming so'm bo'lgani holda, Nukus shahrida – 998,8 ming so'mni, Qonliko'l tumanida – 1969,3 ming so'mni, Taxtako'pir tumanida – 1957,4 ming so'mni, Mo'ynoq tumanida – 1266,3 ming so'mni, Taxiatosh tumanida – 1246,8 ming so'mni Xo'jayli tumanida – 1129,1 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, ming so'm)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4570,3	828,9
Amudaryo	1222,5	400,6
Beruniy	863,6	609,4
Bo`zatov	2926,5	602,8
Qonliko'l	3930,5	1969,3
Qorao'zak	3031,9	575,4
Kegeyli	2769,1	515,7
Qo'ng'irot	3182,5	832,1
Mo'ynoq	2494,5	1266,3
Nukus	3586,9	716,1
Taxiatosh	13564,6	1246,8
Taxtako'pir	3109,2	1957,4
To'rtko'l	1026,0	595,5
Xo'jayli	2560,6	1129,1
Chimboy	1067,6	791,3
Shumanay	1771,4	794,7
Ellikqal'a	1189,9	767,8
Nukus sh.	15328,1	998,8



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, % da)**

Hisobot davrida kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan 1847,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,2 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mo'ynoq, Shumanay va Ellikqal'a tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Beruniy tumanida (85,4 %), Chimboy tumanida (64,7 %), To'rtko'l tumanida (61,3 %) kuzatildi.

Respublikamiz shahar va tumanlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Nukus shahar (8,4 %), Taxiatosh (11,8 %), Qanliko'l (15,4 %), Kegeyli (22,4 %) va Bo'zatov (22,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Respublikada faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

Bugungi kunda respublikada 2610 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1079 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 41,3 %) Nukus shahriga 539 tasi (20,6 %), To'rtko'l tumaniga 293 tasi (11,2 %), Beruniy tumaniga 247 tasi (9,5 %) to'g'ri kelmoqda.



2020- yil yanvar-avgust oyida respublikada 454 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 203 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 44,7 %) Nukus shahrida 73 tasi (16,1 %), To'rtko'l tumanida 53 tasi (11,7 %), Amudaryo tumanida 39 tasi (8,6 %) hamda 38 tasi (8,3 %) Ellikqal'a tumanida tashkil etildi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi sanoat
statistikas bo'limi Tel.: (61) 224-92-08**